



MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARINING PEDAGOGIK O'YINLAR ORQALI MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH.

*Ilmiy rahbar: Otajonov Jamshid
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD)*

Alimova Tamina

Far.du magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning ahamiyati yoritilgan. Pedagogik va didaktik o'yinlar bolalarni aqlan, ruhan va jismonan rivojlanishi uchun katta hissa qo'shadi. Maktabgacha ta'limda o'quv mashg'ulotlari mobaynida pedagogik o'yinlarning o'rni haqida muhim tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Didaktika, aqliy hujum, rolli o'yinlar, syujet, talim texnologiyalari.

Pedagogik o'yinlar nazariy, amaliy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar musiqiy ta'lim - tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasi ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin. Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar. Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsuldor, ijodiy, psixotexnik o'yinlar. O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, sujetli, badiiy rolli, hodisalarni tasavvur etuvchi va drammalashtiruvchi o'yinlar. Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar.



O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshq.) bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar. Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, sujetliishchan, drammalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy - jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'tgan asrning 60-yillari boshida AQSH so'ngra boshqa G'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy samarali va tejamli ta'lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar. Didaktik o'yinlarning yana bir turi aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 - yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb ham nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi: - muammoli vaziyat yaratish; - g'oyalarni shakllantirish; - eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baxolash va tanlash.

Ta'lim olishning poydevori maktabgacha ta'lim jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon bola ongining har tomonlama rivojlanishi uchun muhim omil sanaladi. Maktabgacha talim jarayonini tashkil etishda o'yin eng muhim vosita sanaladi. O'yinlar o'z ifoda maqsadiga ko'ra turlicha nomlanadi: Harakatli o'yinlar, rolli-sujetli o'yinlar, didaktik o'yinlar kabi bir qator turlari mavjud.

``O'z shaklini``top o'yini:

Ushbu o'yinda bolalarga ixtiyoriy mavzuga oid bo'lgan predmetlarni shaklini tanlab olib ularni asos shakli hosil qilinadi, ya'ni misol uchun kitob rasmi chizilib so'ng uni qirqib olinadi. Qirqib olingandan qolgan asos qismidagi qog'ozda kitobning shakli paydo bo'ladi. Uni bolalarga berib ochiq qolgan shakllarga mos bo'lgan predmetni mos o'rnini topib qo'yish kerak ekanligi tushuntiriladi. Ushbu o'yin orqali bolada fazoviy tassavurlar uyg'onib, shakllarni to'g'ri uyg'unlashtira olishga o'rganadi. Misol:




``O'z juftini top``o'yini

Ushbu o'yinda ixtiyoriy bolalar uchun qiziq bo'lgan predmetlar rasmini bo'laklarga ajratib beriladi. Ushbu o'yin orqali bolalar to'g'ri rang tanlay olishni, shaklni




mos tomonini topishni o'ng va chap tomonlarni to'g'ri farqlay olishni o'rganadi. Qo'l matorikasi rivojlanadi.



Misol:

``Soyasidan top`` o'yini

Berilgan ko'rgazmadan ko'rinib turib tiki, narsalarning soyasiga qarab qaysi predmetga tegishli ekanligini bolalar topishi kerak bo'ladi. Misol:



Bunday turdagi didaktik o'yinlar ham ko'zgzamaliligi bilan ham harakatliligi bilan bolalar e'tiborini tortadi va bilishga bo'lgan qiziqishini ottiradi. Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy tahimdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tarbiya jarayonlariga pedagogik texnologiya va interfaol usullarni maqsadli qo'llash, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobilyatlarini, ta'lim shakillarini o'ptimallashtirish, bolalarning mustaqil faoliyatini o'stirish va ta'lim samarodirligiga erishishga olib keladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.



3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma.T., Sharq, 2006y.
4. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 www.openscience.uz 746 tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.
5. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta'lim. 2012y. №4 . 8-12 betlar
6. Tolipov O'.No'monova N.Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. G'G' Xalq ta'limi.-Toshkent, 2002.-N 3.
- 7.F.R.Kodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari;
8. S.K. Shodiyeva-“O'rta guruh bolalari nutqini o„stirish“ o'quv qo'llanma. T.: “O'qituvchi” 1993 yil;
9. D.R.Babayeva “Nutq o'stirish metodikasi” T.: Fan va texnologiyalar 2009 yil.
10. D.R.Babayeva “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi” o'quv qo'llanma. TDPU 2016 yil.
11. D.R. Babayeva “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi” darslik TDPU 2017 yil.
12. G.Jalolova “Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish”. T.: 2007.
13. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar - ta'lim - tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent-2010y.